

**MAMLAKATIMIZDA HUDUDIY MIQYOSDA KICHIK BIZNESGA SARMOYA KIRITISH  
BO'YICHA TADQIQOTLAR**

**Toxirov Rustam**

Qo'qon universiteti doktoranti

**Annotatsiya.** Ushbu tadqiqot kichik biznesga sarmoya kiritishning mamlakatimiz hududiy rivojlanishiga ta'sirini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda kichik biznesning iqtisodiy o'sishdagi o'rnini, hududiy iqtisodiyotdagi ahamiyati va sarmoya kiritishning samaradorligi tahlil qilinadi. Asosiy e'tibor kichik biznes sub'ektlariga davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari, kredit va subsidiyalar, soliq imtiyozlari kabi omillarni o'rganishga qaratiladi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha samarali strategiyalar va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Tadqiqot natijalari hududiy siyosatni takomillashtirish, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va tadbirkorlik muhitini yaxshilash uchun foydalaniladi. Shuningdek, tadqiqot hududiy investitsiya loyihalarini rejalashtirishda va amalga oshirishda yordam beradigan amaliy uslubiy ko'rsatmalarni ham o'z ichiga oladi. Mazkur tadqiqot kichik biznesga sarmoya kiritish orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishini jadallashtirish, yangi ish o'rinlari yaratish va aholining turmush darajasini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Shu bilan birga, mamlakatimizning barcha hududlarida kichik biznesning rivojlanishi uchun teng sharoitlar yaratish va investitsion muhitni yaxshilash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes, investitsiyalar, tadbirkorlik, iqtisodiy o'sish, soliq imtiyozlari, hududiy siyosat, tahlil va tadqiqot

**Аннотация.** Данное исследование посвящено изучению влияния инвестиций в малый бизнес на территориальное развитие нашей страны. В исследовании анализируется роль малого бизнеса в экономическом росте, его значение в региональной экономике, эффективность инвестиций. Основное внимание уделяется изучению таких факторов, как меры государственной поддержки, кредиты и субсидии, а также налоговые льготы для субъектов малого предпринимательства. Практическая значимость исследования заключается в разработке эффективных стратегий и рекомендаций по развитию малого бизнеса. Результаты исследования будут использованы для совершенствования региональной политики, поддержки малого бизнеса и улучшения деловой среды. Исследование также включает в себя практические методические рекомендации, которые помогут в планировании и реализации региональных инвестиционных проектов. В данном исследовании показаны возможности ускорения экономического и социального развития регионов, создания новых рабочих мест и повышения уровня жизни населения за счет инвестиций в малый бизнес. При этом будут разработаны предложения по созданию равных условий для развития малого бизнеса и улучшению инвестиционной среды во всех регионах нашей страны.

**Ключевые слова:** малый бизнес, инвестиции, предпринимательство, экономический рост, налоговые льготы, региональная политика, анализ и исследование.

**Annotation.** This study is dedicated to the study of the impact of investing in small business on the territorial development of our country. The research analyzes the role of small business in economic growth, its importance in the regional economy, and the efficiency of investment. The main focus is on the study of factors such as state support measures, loans and subsidies, and tax incentives for small business entities. The practical significance of the research is that it develops effective strategies and recommendations for the development of small business. The results of the research will be used to improve regional policy, support small businesses and improve the business environment. The study also includes practical methodological guidelines that will help in planning and implementing regional investment projects. This study shows the possibilities of accelerating the economic and social development of the regions, creating new jobs and raising the standard of living of the population by investing in small business. At the same time, proposals will be developed to create equal conditions for the development of small businesses and improve the investment environment in all regions of our country.

**Keywords:** small business, investment, entrepreneurship, economic growth, tax incentives, regional policy, analysis and research

**Kirish.** Mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanish va aholi farovonligini oshirishda kichik biznesning ahamiyati katta. Kichik biznes nafaqat yangi ish o'rinlarini yaratish, balki mahalliy resurslardan samarali foydalanish, innovatsion g'oyalarni amalga oshirish va iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko'rsatish orqali umumiy iqtisodiy o'sishga hissa qo'shadi. Shu nuqtai nazardan, hududiy miqyosda kichik biznesga sarmoya kiritish, mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va ijtimoiy rivojlanishi uchun muhim omil hisoblanadi. Hududiy rivojlanishdagi tengsizliklarni bartaraf etish va barcha mintaqalarda barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash maqsadida kichik biznes sub'ektlariga davlat tomonidan ko'rsatiladigan qo'llab-quvvatlash choralari, kredit va subsidiyalar, soliq imtiyozlari kabi mexanizmlar katta ahamiyatga ega. Ushbu tadqiqotda kichik biznesga sarmoya kiritishning hududiy rivojlanishiga ta'siri, sarmoya jalb qilishning samaradorligi va bu jarayondagi mavjud muammolar tahlil qilinadi.

*Tadqiqotning asosiy maqsadi* – mamlakatimizning turli hududlarida kichik biznesga sarmoya kiritish imkoniyatlarini o'rganish, sarmoya kiritish jarayonidagi to'siqlarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Bu orqali kichik biznesning yanada rivojlanishiga, yangi ish o'rinlari yaratilishiga va hududiy iqtisodiyotning mustahkamlanishiga erishiladi. Shuningdek, tadqiqot kichik biznesning rivojlanishi orqali hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilash, investitsion muhitni optimallashtirish va umumiy iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shish imkoniyatlarini ko'rsatib beradi. Mazkur kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi, asosiy maqsadi va vazifalari bayon etiladi.

**Adabiyotlar sharhi.** Butun dunyoda iqtisodiyotni xarakatlantiruvchi kuchi sifatida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini asosiy o'rinni egallab kelmoqda. Dunyoning rivojlangan mamlakatlari Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, AQSh davlatlarida YaIMdagi KBXTning ulushi 50-60 foiz atrofida bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2020 yil O'zbekistonda esa 53,9 foizni tashkil qilmoqda. KBXTni yanada rivojlantirishda investisiyalarning o'rni beqiyosdir. Mamlakatimiz hududlariga ajratilayotgan investisiya miqdorini qanday taqsimlanayotganini statistik o'rganish

muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investisiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investisiya – bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investisiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi. Bu esa kelgusida barcha sohalar kabi hududlarda KBXT sohasiga ham investitsiyalarni keng jalb etib, aholining ish bilan bandligi va aholi pul daromadlari oshirish natijasida aholi turmush farovonligini yaxshilashga olib keladi. Kichik biznes va tadbirkorlik sohasi, uning rivoji va yo'nalishlarini o'rgangan xorijiy olimlar: A.Marshall Y.Shumpeter V.Valeslar tadbirkorlikning ilmiy asoschilari hisoblanadi. Mahalliy olimlarimizdan: Bayxonov B.T.<sup>1</sup> tarmoqlar faoliyatini ishlab chiqilgan ekonometrik modellar orqali tahlil qilib, prognozlash asosida investitsiyalar samaradorligini baholashda, zamonaviy uslubiy yondashuvni qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. H.P.Abulqosimov, A.A.Qulmatovlar mamlakatimizda kichik biznes sohasida oilaviy tadbirkorlikning o'rni va uni rivojlantirish yo'llarini o'rgangan. B.K.G'oyibnazarov, H.O.Rahmonov, Sh.I.Otajonov, D.S.Almatovalar KBXT faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari, sohada mavjud bo'lgan muammolar va ulani bartaraf etish yo'llari, kichik biznes sub'ektlarini qo'llabquvvatlash mexanizmlari o'rganilgan.

**Metodologiya.** Biz avvalgi bobda mamlakatimizda kichik biznesda investitsialardan foydalanishning mintaqaviy tahlili mavzusida adabiyotlar tahlilini amalga oshirdik. Biz statistik uslubidan foydalandik ushbu bobda biz taqdimotimizni metodologik qismini ishlab chiqamiz va adabiyotlar tahlilida mavjud kamchiliklarni to'ldirish strategiyalarini belgilab olamiz, hamda adabiyotlar qatorida kichik biznesda investitsialardan foydalanishning mintaqaviy tahlilini qilamiz

Metodologiya qismini shakillantirish maqsadida biz dastlabki taqdimotimiz uchun zarur bo'lgan malumotlarni turli malumotlar bazasi va mamlakatimizdagi davlat idoralari malumotlariga tayangan holda amalga oshiramiz.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimiz ulkan xorijiy investitsiyalar yo'naltirilayotgan mamlakatlar guruhiga kirish uchun barcha shart-sharoitlarga, xorijiy investitsiyalarni jalb etish uchun bir qator afzalliklarga ega. Bu borada jahon hamjamiyati oldida o'zining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, dunyo xaritasidagi geografik joylashuvi, tabiiy resurslarining tarkibi va zaxirasi, hukumat olib borayotgan iqtisodiy siyosat va boshqalar bilan muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston 2013 yilda biznes uchun yaratilgan sharoitlar, xususan qo'shma korxonalar uchun soliq, bojxona imtiyozlari va preferentsiyalar dunyodagi eng istiqbolli 20 ta davlat qatoriga qo'shilgan Markaziy Osiyodagi yagona davlat bo'ldi. Bu xabarni xorijiy ommaviy axborot vositalari Buyuk Britaniyaning tavakkalchiliklarni tahlil qilish bilan shug'ullanadigan "Maplecroft" konsalting kompaniyasi xulosasiga asoslangan holda e'lon qildi. "Maplecroft" kompaniyasi tomonidan hisoblab chiqiladigan "Rivojlanib borayotgan bozorlar indeksi" biznes yuritish uchun istiqbolli bo'lgan 175 ta davlatni o'z ichiga olgan. Indeksda o'tgan yillardagi iqtisodiy ko'rsatkichlar, mamlakatning investitsiya sarflash uchun jozibadorligi, eng so'nggi tarkibiy islohotlar va demografik ahvol, shu jumladan, o'rta sinf soni bo'yicha prognozlar e'tiborga olingan.

<sup>1</sup> Bayxonov B.T. "O'zbekiston iqtisodiyotida investitsiyalarni tarmoqlararo taqsimlashning ekonometrik modellashtirish uslubiyatini takomillashtirish". Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. Toshkent – 2019. – 76 b.

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish borasida erishilgan yutuqlar Xalqaro valyuta jamg'armasi, Jahon banki, Osiyo taraqqiyot banki kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar tomonidan yuqori baholanmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining muvaffaqiyatlari yurtimizdagi siyosiy barqarorlik va islohotlarning izchil amalga oshirilishiga asoslangani etakchi xalqaro ekspertlar tomonidan bir necha bor ta'kidlandi. Mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish va arzonlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbikorlik sub'yektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijasida kichik biznesning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi tutgan o'rni tobora mustahkamlanib bormoqda. Bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining qariyb 55,8 foizi ayni shu sohada ishlab chiqarilmoqda. Vaholanki, 2000 yilda bu ko'rsatkich 31 foizdan iborat edi. Ayni paytda ishlab chiqarilayotgan jami sanoat mahsulotlarining 23 foizi, ko'rsatilayotgan bozor xizmatlarining deyarli barchasi, mahsulot eksportining 18 foizi, iqtisodiyot tarmoqlarida ish bilan band bo'lgan aholining 75 foizi kichik biznes ulushiga to'g'ri kelmoqda. Ana shu raqamlardan ko'rinib turibdiki, kichik biznes shaklan kichik bo'lishiga qaramasdan, iqtisodiyotimizni barqaror rivojlantirish, aholini ish bilan ta'minlash muammosini hal etish va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda tobora katta rol o'ynamoqda. Mamlakatimizda investitsiya muhitining barqarorligi va investitsion jozibadorlikning to'g'ri yo'lga qo'yilgani ham xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi uchun zamin bo'lmoqda. Iqtisodiyot vazirligi, Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi, Moliya vazirligi, boshqa manfaatdor tuzilmalar qisqa muddatlarda xorijiy investorlar faoliyati uchun yaratilgan amaldagi sharoitlarni chuqur va tanqidiy o'rganib chiqish hamda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni rag'batlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha takliflarni ishlab chiqishga kirishgan. Ushbu takliflarni tayyorlashda mavjud normativ bazani, investorlarni jalb etish va xorijiy investitsiyalar ishtirokida tashkil qilingan korxonalarni ro'yxatga olishning tartib-qoidalarini, ularni himoya qilish bo'yicha ishonchli kafolatlarni yanada takomillashtirish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ko'plab davlatlar tajribasining ko'rsatishicha, xorijiy investitsiyalardan samarali foydalanish raqobat sharoitida respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirishning garovidir. Shu bois, mamlakatimiz banklari ham xorijiy investitsiyalarni iqtisodiyotga jalb qilishga alohida e'tibor qaratmoqda. Xorijiy investitsiyalar korxonalarni moliyalashtirishning qo'shimcha manbai bo'lish barobarida ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, texnik va texnologik jihatdan yangilash, amaliyotda zamonaviy menejmentni qo'llashga ham sharoit yaratadi.

Aytish kerakki, mintaqada xorijiy investorlar uchun yaratilayotgan keng istiqbollari va imkoniyatlar hamda aniq bayon etilgan taraqqiyot ustuvorliklari yetakchi transmilliy kompaniyalar va korporatsiyalarning o'z investitsiyalarini olib kirishiga yuqori darajada intilishini ta'minlaydi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, xorijiy investitsiyalar har qanday iqtisodiyotni harakatga keltiruvchi va uning taraqqiyotini ta'minlovchi kuchdir. Shuning uchun ham barcha imkoniyatlarni ishga solib, kichik biznes iqtisodiyotiga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmini oshirish zamon talabidir. Investitsiya faoliyatida asosiy e'tiborni rivojlanish darajasi past bo'lgan hududlardagi kichik biznes su'ektlariga qaratish maqsadga muvofiqdir. Aynan maqsadli

yo'naltirilgan investitsiya siyosati mamlakatdagi kichik biznesni iqtisodiy barqarorligini ta'minlovchi asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Mamlaktimizda faoliyati yo'lga qo'yilgan kichik qo'shma korxonlarning erkin faoliyati ko'rsatishi hamda tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatini yanada kuchaytirish, xududlarning barqaror rivojlanishi uchun barcha viloyatlarga teng taqsimlangan holda ichki va tashqi investitsiyalarni kiritish. Shuningdek, xududlarning salohiyati va keng imkoniyati haqidagi ma'lumotlar bilan investorlarni tanishtirish hamda ular uchun ko'proq manfaatdorlik, moyillik yaratish mexanizmini ishlab chiqish.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. B.Urinov "Strategic Priorities of the University." JournalNX, 2020, pp. 452-459.
2. Rustam, T., & Botirjon, R. (2023). MAMLAKATIMIZDAGI YALPI ICHKI MAHSULOTGA SANOAT HAJMINING TA'SIR DARAJASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 23-27.
3. Solijonovich, R. T. (2023). TADBIRKORLIK SUB'EKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISH. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 366-370.
4. Rustam, T. (2022). THEORETICAL PROBLEMS WITH THE GOVERNMENT'S ASSISTANCE FOR SMALL BUSINESSES IN UZBEKISTAN. Yosh Tadqiqotchi Jurnal, 1(5), 638-644.
5. Tokhirov, R., & Rahmonov, N. (2021). Technologies of using local networks efficiently. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(6), 250-254.
6. NISHONKULOV, S., & TOKHIROV, R. (2023). ECONOMETRIC ANALYSIS OF THE IMPACT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT OF BUSINESS ENTITIES ON ECONOMIC GROWTH ON THE EXAMPLE OF UZBEKISTAN. Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology, 8(3'), 215-223. Retrieved from <http://niet.uz/index.php/nj/article/view/300>
7. Mamasoliyev Javlonbek Ortiq o'g'li, & Toxirov Rustam Solijonovich. (2023). TOSHKENT VILOYATI MDH MAMLAKATLARI BILAN TASHQI SAVDO A'LOQALARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 324-327. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.453>
8. Axmadjonov Dostonbek Odiljon og'li, & Rustam Tohirov Solijonovich. (2023). INTERNET TEXNOLOGIYALARINING KICHIK BIZNES SUB'YEKTLARIGA TA'SIRI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1(1), 175-177. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.395>
9. Tokhirov R.S., & Numonov F.N. (2023). DEPENDENCE AND LEVEL OF INFLUENCE OF THE SERVICES SECTOR ON THE ECONOMY OF UZBEKISTAN. Экономика и социум, (7 (110)), 318-329.
10. Toxirov Rustam (2022). TADBIRKORLIK SUB'YEKTLARINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI. Research Focus, 1 (4), 173-176.
11. Solijonovich, T. R. SMALL NETWORKS FOR PATTERN RECOGNITION, CLUSTERING, AND TIME SERIES. Chief Editor.
12. Йигиталиев Розиматжон Нодиржонович, & Олимов Ильхом Азизович. (2024). Область развития nano технологиями в малом бизнесе и обрабатывающей промышленности. Open Academia: Journal of Scholarly Research, 2(4), 60-66. Retrieved from <https://academiaone.org/index.php/4/article/view/729>